

## О‘QITUVCHILARDA PEDAGOGIK QOBILIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MAKTAB AMALIYOTCHI PSIXOLOGNING O‘RNI

*Kambarova Maftuna Miravazsho qizi*

*Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani*

*7-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktab amaliyotchi psixologining o‘qituvchilar orasida pedagogik qobiliyatni rivojlantirishdagi roli, uning vazifalari va samarali psixologik yondashuvlari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** pedagogik qobiliyat, o‘qituvchi, maktab psixologi, professional rivojlanish, psixologik yordam, motivatsiya, kasbiy malaka, konsultatsiya, pedagogik strategiyalar, emotsional barqarorlik

### **KIRISH**

Pedagogik qobiliyat — bu o‘qituvchining darsni samarali olib borish, o‘quvchilarning bilimini oshirish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash qobiliyatidir. Bu qobiliyat faqat nazariy bilim bilan emas, balki psixologik tayyorgarlik va amaliy ko‘nikmalar bilan ham bog‘liq.

Maktab amaliyotchi psixologining roli o‘qituvchilar orasida pedagogik qobiliyatni shakllantirishda juda katta. Psixolog o‘qituvchilarga individual yondashuvni rivojlantirish, sinf boshqaruvi, dars metodikasi va o‘quvchilarning ruhiy holatini hisobga olish bo‘yicha maslahatlar beradi. Psixolog o‘qituvchilar bilan konsultatsiyalar va treninglar o‘tkazadi. Bu jarayonlarda pedagoglar o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, professional maqsadlarini belgilaydi va pedagogik strategiyalarni ishlab chiqadi.

Shuningdek, psixolog emotsional barqarorlikni shakllantirishga yordam beradi. O‘qituvchi stress va charchoqni boshqarishni o‘rganishi bilan dars jarayonida samaraliroq bo‘ladi, o‘quvchilar bilan yanada ijobiy munosabat o‘rnatadi.

Psixologik yordam shuningdek, motivatsiyani oshirishga qaratilgan. O'qituvchining mehnatini qadrlash, yutuqlarini e'tirof etish va rag'batlantirish uning pedagogik qobiliyatini kuchaytiradi. Maktab amaliyotchi psixologi o'qituvchilarga sinfdagi nizolarni boshqarish, ijtimoiy muhitni uyg'unlashtirish va o'quvchilar bilan samarali muloqot qilish bo'yicha tavsiyalar beradi. Bu pedagogik jarayonni silliq va samarali qiladi.

Shuningdek, psixolog o'qituvchilarga individual rivojlanish rejasini tuzishda yordam beradi. Ular o'z maqsadlarini belgilash, yangi metodlarni o'rganish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash orqali pedagogik qobiliyatini oshiradi.

Uy-maktab hamkorligi ham muhim o'rin egallaydi. Psixolog ota-onalar bilan pedagoglar o'rtasidagi muloqotni tashkil qilib, ularning birgalikdagi ishlashini ta'minlaydi. Bu o'quvchilarning rivojlanishiga bevosita ijobiy ta'sir qiladi.

Govard Gardner qobiliyatlarni intellektlar to'plami deb atadi va uning ettita jihatini ajratib ko'rsatdi. Biz intellektning ushbu jihatlaridan oltitasini o'qituvchi pedagogik mahoratini takomillashtirish nuqtai nazaridan tahlil qilishimiz mumkin. Psixolog olim Olga Matveeva ushbu jihatlarni psixologik texnologiya bilan kuchaytirib modifikatsiyalaydi va o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlab, quyidagi qobiliyatlarni ko'rsatib o'tadi:

1. Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati. O'qituvchi o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari jarayonlarda, sinfdan ijobiy ruhiy iqlim yarata oladi.
2. Voqealarni oldindan ko'ra olish qobiliyati: Ushbu qobiliyat turi har bir o'qituvchining sergakligida, o'quvchilarning ruhiyatini, ichki dunyosini ko'ra olishida namoyon bo'ladi. Shunda o'qituvchi kim nima- ga qodir ekanligini oldindan bashorat qila oladi.
3. Eshitish va his qilish qobiliyati. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan insonlar musiqani sevishadi, ohangni yaxshi his qilishadi, deklamatsiya asosida proza va poeziyani yaxshi o'qishadi, eshitgan narsasini xotirada saqlaydi, ayniqsa, she'r va qo'shiqlarni sevib tinglaydi.

4. Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat. O'qituvchining o'z hatti hara- katlarini muvofiqlashtirish qobiliyati, harakat ohangini his qilgan holda yo'naltiradi, vaqtni harakat sur'ati bilan his qiladi, o'zi uchun maishiy qulayliklarni yarata oladi, hayot marhamatlaridan rohatlanishni biladi.

5. Mantiqiy qobiliyat. Falsafiy mulohazalar yuritishni, raqamlarni, matematikani, murakkab masalalarni hal qilishni sevadi, sababiyat va oqibat natijalarini tushunish malakasiga ega, voqelikda asosiylikni ikkin-chi darajalisidan ajrata oladi;

6. Shaxsning ichki qobiliyati. O'z-o'zini mukammal bilishi, tushu- nishi va his qilish qobiliyati, erkin shaxsda ichki qobiliyat mukammal rivojlanadi, irodasi mustahkam, qat'iyatli, har qanday vaziyatda o'z fikr- mulohazasini erkin bayon eta oladi.

Qobiliyat o'qituvchining individual imkoniyatlarini xarakterlaydi. Bir xil sharoitda qobiliyatli o'qituvchilar o'z faoliyatlarida ham qobiliyati past kishilarga qaraganda ko'proq yutuqlarga erishadilar. Qobiliyat shaxsning ham umumiy, ham maxsus rivojlanishida tezroq oldinga siljib borishini, uning ijrochilik va ijodkorlik faoliyatlarida eng yuqori natijalarga erishishini ta'minlaydi. Qobiliyatli kishi muta-xassislikni tez egallay oladi va yuqori mahoratga erishadi hamda ishlab chiqarish, fan yoki madaniyatga yangilik kiritadi. Qobiliyatga yaqinroq turadigan tushunchalar ko'nikma va malakalardir. Ko'nikmalar – o'qituvchining kasbiy faoliyati jarayonida hosil qilin- gan tajriba va bilimlar asosida bajariladigan ishning mukammal usuli. Malakalar – o'qituvchining ongli faoliyatni bajarishi jarayonida hosil qilingan kasbiy intellektual faoliyatning avtomatlashgan komponentlari yig'indisi.

Ular o'qituvchi kasbiy faoliyati mexanizmining asosini tashkil qiluv- chi jarayonlar bo'lib, qobiliyat bilan birgalikda pedagogik mahoratga erishishni ta'minlaydilarki, buning natijasida o'qituvchilar kasbiy faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Qobiliyatli, ammo ko'nikma va malakalarga ega bo'lmagan noshud o'qituvchi ko'p narsaga erisha olmaydi. Qobiliyat ko'nikma va malakalarni chuqur egallashda ro'yobga chiqadi. Darhaqiqat, qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari

ko‘p qirrali va mukammallashgan bo‘ladi. Ko‘nikma va malakalar etarli bo‘l- magan qobiliyatni birmuncha to‘ldirishi yoki qobiliyatning kamchiligini tuzatishi mumkin. Ko‘nikmalarni umumlashtirib mohirlik ham deb ataydilar. Mohirlik ham qobiliyatning o‘zginasidir. Demak, qobiliyat ko‘nikma va malakalarning paydo bo‘lish jarayonida shakllanadi.

Pedagogikada o‘qituvchi qobiliyati – bu imkoniyatdir, uning mohirligi zaruriy darajasi faqatgina o‘qitish va tarbiyalash jarayonida takomillashib boradi va yutuqlarga erishishida zamin yaratadi. Tug‘ma qobiliyatlar zehn deyiladi. Iqtidor, iste’dod, daholik – insonning ijodiy faoliyati jarayonida erishiladigan qobiliyatlarning rivojlanish bosqichlari hisoblanadi. Qobiliyatlar xarakter kabi, shaxsning faqatgina ma’lum faoliyatidagina mavjud bo‘lgan sifatlardir. Kasbiy faoliyatning ta’lim mazmunini belgilovchi sifatlari o‘qituvchining ijodkorligida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik – bu sifat jihatidan yangi, original va takrorlanmas biror yangilikni paydo qiluvchi faoliyatdir.

Mahsuldor ijodkorlikda belgilangan har qanday muammo muvaf- faqiyatli hal qilinadi; ijod qilishga layoqatli bo‘lgan o‘qituvchilarning asosiy qismida bu jihatlar namoyon bo‘ladi. Evristik ijodkorlik, jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o‘zlashtirish va targ‘ib qilishni anglatadi, ya’ni uning asosida g‘oyalar (farazlar) hosil qilish jarayonini intensivatsiya qilish va ularning haqiqatga yaqinligini (ehtimolligini, ishonchliligini) izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi. Kreativ ijodkorlikda o‘qituvchi ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o‘z fikrlari va takliflari bilan chiqadi, mohir va tajribali, layoqatli o‘qituvchilargina bunga erishishi mumkin. Tabiiy anatomik-fiziologik layoqat nishonalari qobiliyatlarning fiziologik asosini tashkil etadi. Keyinchalik qobiliyatga aylanadigan layoqat nishonalarning majmui insonning iste’dodi deyiladi.

Har qanday qobiliyat – shaxsga tegishli bo‘lgan murakkab tushunchadir, u faoliyatning talablariga mos xususiyatlar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi. Har qanday

faoliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talablarga javob bera olsa, kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda o'z qobiliyatini ko'rsata oladi, agar xususiyatlaridan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatining muayyan turiga nisbatan kam qobiliyatli, deb xarakterlanadi. Mana shuning uchun ham qobiliyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki inson shaxsining faoliyat talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlay oladigan xususiyatlar ansambli yoki sintezini tushunish lozim. O'qituvchi qobiliyatini o'rganishda xususiyatlar «ansambli» iborasini biz shuning uchun ham ishlatamizki, bunda xususiyatlarning oddiygina birgalikda mavjud bo'lishini emas, balki ularning uzviy bog'langan bo'lishini, muayyan tizimda o'zaro ta'sir qilishini ko'zda tutayapmiz. Bu tizimda xususiyatlardan biri oldingi o'ringa chiqib, yetakchi xususiyatga ega bo'lsa, ayni vaqtda boshqalar uchun yordamchi xususiyatlar rolini o'ynaydi.

Ta'kidlash joizki, qobiliyatli o'qituvchiga pedagogik faoliyat va mehnat engilroq bo'ladi va u kamroq charchaydi, chunki sevimli mehnati unga huzur-halovat bag'ishlaydi.

Qobiliyat bilim, ko'nikma va malakalar mahsuli, shu bilan birga, faoliyat usullarini egallash tezligi, teranligi va mustahkamligida namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti yuksak darajada muvaffaqiyatli bo'lishi uning pedagogik qobiliyatga qanchalik ega ekanligiga bog'liq. O'qituvchilarning faoliyati yosh avlodni ma'naviy barkamol shaxs darajasida tarbiyalashda va kasbiy bilimlarni chuqur egallagan kadrlarni tayyorlashda namoyon bo'ladi. Buning muvaffaqiyati o'qituvchilarning pedagogik qobiliyatiga bog'liq. Qobiliyat kasbiy faoliyat jarayonida sayqallanib boradi. Buning uchun o'qituvchida layoqat, zehn va qiziqish bo'lishi kerak. Pedagogik-psixologiyada o'qituvchi qobiliyatining cheklangan turlari yo'q. Pedagogik qobiliyat turlari fanning, jamiyatning rivojlanishiga qarab ko'payib va o'zgarib turishi mumkin. Falsafada qobiliyat uzoq vaqtgacha "o'zgarmas irsiyat" nasldan – naslga o'tuvchi jarayon sifatida talqin etilgan.

Olimlarning uzoq yillar olib borgan ilmiy-tadqiqotlari va kuzatishlari natijasida pedagogik qobiliyatning quyidagi asosiy sifatlari ajratib ko'rsatilgan:

1. O'z kasbiga muhabbat, o'quvchilarni seva olishi.
2. Mutaxassislik fanini mukammal bilishi, unga qiziqishi.
3. Pedagogik taktga (odob va go'zallikka) ega bo'lish.
4. Bolalar jamoasiga singib keta olish.
5. O'z mehnatiga ijodiy yondashish.
6. Javobgarlikni his etish.
7. Tarbiyaviy bilimlarni egallaganligi.

O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatning o'ziga xos tizimlari mavjud.

Qobiliyatlar tizimi quyidagi xususiyatlari bilan farq qilinadi:

asosiy xususiyatlar;

tayanch xususiyatlar; ✓ yetakchi xususiyatlar;

yordamchi xususiyatlar.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, maktab amaliyotchi psixologi o'qituvchilarda pedagogik qobiliyatni shakllantirishda diagnostika, individual yondashuv, psixologik qo'llab-quvvatlash va motivatsiya orqali muhim rol o'ynaydi. Uning faoliyati pedagogik jarayon sifatini oshiradi va o'quvchilarning to'laqonli rivojlanishiga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xodjayev B. X. "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti". Darslik. "Sano-standart", Toshkent. 2017. –B. 322-333.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat - Toshkent, TDPU, 2003.- 174 b.
3. Al Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Sahihi Buxoriy: Al-jome' as-Sahih. //Ishonarli to'plam. 1- kitob. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008. – 712 b.

4. B.Raximov., N.N.Narziyeva. Pedagogik mahorat. Darslik. Guliston:  
“SamDCHTI” nashriyoti. 154 bet.
5. Ziyo.net materiallari